

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

## Doimiy aholi soni.

Surxondaryo viloyati doimiy aholisi soni 2019 yil 1 iyul holatiga 2594,6 ming kishini tashkil etib, 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 24,7 ming kishiga yoki 1,0 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 920,8 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 35,4%), qishloq aholisi soni 1673,8 ming kishini (64,6 %) tashkil etdi.

## E'tibor bering: 2019 yil yanvar-mart

- Aholi soni 24,7 ming kishiga ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni 30,9 ming nafarni tashkil etdi.
- 4,9 mingta vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida 9,1 mingta nikoh va 0,9 mingta ajralishlar ro'yxatga olindi.

## Surxondaryo viloyati aholisining umumiyo'sishi (2019 yil yanvar-iyun oylarida)

**Tirik tug'ilganlar  
30,9 ming bola**

Tabiiy o'sish  
+26,0  
ming kishi

Aholining  
umumiyo'sishi  
24,7  
ming kishi

**Ko'chib kelganlar  
5,2 ming kishi**


Mexanik o'sish  
(kamayish)  
-1,3  
ming kishi

**Vafot etganlar  
4,9 ming kishi**

**Ko'chib ketganlar  
6,5 ming kishi**

## Demografik holat

Hudular kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi  
(2019 yil 1 iyul holatiga, viloyat jami aholisiga nisbatan, %da)



Surxondaryo viloyati hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil iyul holatiga eng ko'p aholi soni Denov tumani 379,5 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,6 %ni) va Qumqo'rgon 240,5 ming kishini (9,3 %), Jarqo'rgon 215,2 ming kishini (8,3 %), aksincha eng kam aholi soni Termiz tumanida 108,0 ming kishi (4,2 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan Denov tumani 2,4 % ni, Qumqo'rgon 2,5 %ni, va Jarqo'rgon 2,2%ni, Qiziriq 2,8 %ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Termiz shahrida 0,9 %ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqposlanishi**

(2018-2019 yillar 1 iyul holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)

| Hududlar                    | 2018 yil      | 2019 yil*     | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ti, % |
|-----------------------------|---------------|---------------|--|
| <b>Surxondaryo viloyati</b> | <b>2537,8</b> | <b>2594,6</b> | <b>102,2</b>                           |
| Termiz sh.                  | 144,5         | 145,9         | 100,9                                  |
| <b>tumanlar:</b>            |               |               |  |
| Oltinsoy                    | 170,0         | 173,8         | 102,2                                  |
| Angor                       | 128,1         | 130,6         | 102,0                                  |
| Boysun                      | 116,1         | 118,6         | 102,2                                  |
| Muzrabot                    | 136,7         | 139,6         | 102,1                                  |
| Denov                       | 370,7         | 379,5         | 102,4                                  |
| Jarqo'rgon                  | 210,6         | 215,2         | 102,2                                  |
| Qumqo'rg'on                 | 234,7         | 240,5         | 102,5                                  |
| Qiziriq                     | 166,7         | 171,3         | 102,8                                  |
| Sariosiyo                   | 199,2         | 203,6         | 102,2                                  |
| Termiz                      | 105,2         | 108,0         | 102,7                                  |
| Uzun                        | 168,2         | 171,9         | 102,2                                  |
| Sherobod                    | 186,5         | 190,7         | 102,3                                  |
| Sho'rchi                    | 200,6         | 205,4         | 102,4                                  |

\*) dastlabki ma'lumot

Surxondaryo viloyati hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1iyul holatiga eng ko'p aholi soni Denov tumani 379,5 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,6 %ni) va Qumqo'rgon 240,5 ming kishini (9,3 %), Jarqo'rgon 215,2 ming kishini (8,3 %), aksincha eng kam aholi soni Termiz tumanida 108,0 ming kishi (4,2 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan Denov tumani 2,4 % ni, Qumqo'rgon 2,5 %ni, va Jarqo'rgon 2,2%ni, Qiziriq 2,8 %ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Termiz shahrida 0,9 %ni tashkil etdi.

**Jinsi bo`yicha doimiy aholi sonining bo`linishi**  
 (2019 yil 1 iyul holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)

| Hududlar                    | erkak         | ayol          |
|-----------------------------|---------------|---------------|
| <b>Surxondaryo viloyati</b> | <b>1310,9</b> | <b>1283,7</b> |
| Termiz sh.                  | 71,7          | 74,2          |
| <i>tumanlar:</i>            |               |               |
| Oltinsoy                    | 89,3          | 84,6          |
| Angor                       | 65,3          | 65,3          |
| Boysun                      | 60,7          | 57,9          |
| Muzrabot                    | 69,1          | 70,5          |
| Denov                       | 193,6         | 185,9         |
| Jarqo'rgon                  | 110,3         | 104,9         |
| Qumqo'rg'on                 | 119,3         | 121,2         |
| Qiziriq                     | 86,5          | 84,8          |
| Sariosiyo                   | 101,5         | 102,1         |
| Termiz                      | 54,3          | 53,7          |
| Uzun                        | 87,8          | 84,1          |
| Sherobod                    | 96,7          | 93,9          |
| Sho'rchi                    | 104,6         | 100,8         |

**Hududlar kesimida aholi zichligi**  
 (2019 yil 1 iyul holatiga, kv kmga to`gri keladigan aholi)

| <i>Hududlar</i>              | <i>aholi soni</i> | <i>hudud maydoni (ming kv.km)</i> | <i>aholi zichligi kv.km(kishi)</i> |
|------------------------------|-------------------|-----------------------------------|------------------------------------|
| <b>Surxondaryo viloyati:</b> |                   |                                   |                                    |
| Termiz sh.                   | 145,9             | 0,03                              | 4863,3                             |
| <i>hududlar:</i>             |                   |                                   |                                    |
| Oltinsoy                     | 173,8             | 0,57                              | 304,9                              |
| Angor                        | 130,6             | 0,39                              | 334,9                              |
| Boysun                       | 118,6             | 3,58                              | 33,1                               |
| Muzrabot                     | 139,6             | 0,74                              | 188,6                              |
| Denov                        | 379,5             | 1,13                              | 335,8                              |
| Jarqo'rg'on                  | 215,2             | 1,16                              | 185,5                              |
| Qumqo'rg'on                  | 240,5             | 1,94                              | 124,0                              |
| Qiziriq                      | 171,3             | 0,59                              | 290,3                              |
| Sariosiyo                    | 203,6             | 3,83                              | 53,2                               |
| Termiz tumani                | 108,0             | 0,85                              | 127,1                              |
| Uzun                         | 171,9             | 1,84                              | 93,4                               |
| Sherobod                     | 190,7             | 2,73                              | 69,9                               |
| Sho'rchi                     | 205,4             | 0,72                              | 285,3                              |

## Demografik holat

**Tug'ilish.** 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 30,9 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 24,1 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega oshgan (2018 yilning yanvar-iyun oylarida 23,7 promille bo'lган).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan Termiz shahrida (19,2 promilledan 22,3 promillega), Qiziriq (25,2 promilledan 26,2 promillega), Qumqo'rgon (24,0 promilledan 25,8 promillega), Uzun (22,4 promilledan 23,1 promillega), Sherobod (22,9 promilledan 23,1 promillega), Sariosiyo (21,0 promilledan 21,8 promillega) kuzatildi.

**Surxondaryo viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni  
(2018-2019 yil yanvar-iyun oylari kihsisi)**

**Ma'lumot uchun**  
Tirik tug'ilganlik mezonlariidan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskularning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola **tirik tug'ilgan hisoblanadi**. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.



| Hududlar                       | 2018y         | 2019y         | O'sish sur'ati % |
|--------------------------------|---------------|---------------|------------------|
| <b>Surxondaryo viloyati</b>    | <b>29 652</b> | <b>30 863</b> | <b>104,1</b>     |
| Termiz sh.<br><i>tumanlar:</i> | 1 375         | 1 612         | 117,2            |
| Oltinsoy                       | 1 964         | 1 980         | 100,8            |
| Angor                          | 1 477         | 1 533         | 103,8            |
| Boysun                         | 1 298         | 1 340         | 103,2            |
| Muzrabot                       | 1 478         | 1 532         | 103,7            |
| Denov                          | 4 801         | 4 776         | 99,5             |
| Jarqo'rgon                     | 2 802         | 2 783         | 99,3             |
| Qumqo'rg'on                    | 2 657         | 3 062         | 115,2            |
| Qiziriq                        | 2 070         | 2 210         | 106,8            |
| Sariosiyo                      | 2 056         | 2 192         | 106,6            |
| Termiz                         | 1 256         | 1 266         | 100,8            |
| Uzun                           | 1 888         | 1 957         | 103,7            |
| Sherobod                       | 2 110         | 2 176         | 103,1            |
| Sho'rchi                       | 2 420         | 2 444         | 101,0            |


**Hududlar kesimida tug'ilganlar koeffitsiyenti  
(2018-2019 yil yanvar-iyun)**

| Hududlar                    | 2018y       | 2019y       | O'sish sur'ati +;- |
|-----------------------------|-------------|-------------|--------------------|
| <b>Surxondaryo viloyati</b> | <b>23,7</b> | <b>24,1</b> | <b>0,4</b>         |
| Termiz sh.                  | 19,2        | 22,3        | 3,1                |
| <i>tumanlar:</i>            |             |             |                    |
| Oltinsoy                    | 23,4        | 23,1        | -0,3               |
| Angor                       | 23,4        | 23,8        | 0,4                |
| Boysun                      | 22,6        | 22,9        | 0,3                |
| Muzrabot                    | 21,9        | 22,2        | 0,3                |
| Denov                       | 25,6        | 25,5        | -0,1               |
| Jarqo'rgon                  | 27,0        | 26,2        | -0,8               |
| Qumqo'rg'on                 | 24,0        | 25,8        | 1,8                |
| Qiziriq                     | 25,2        | 26,2        | 1,0                |
| Sariosiyo                   | 21,0        | 21,8        | 0,8                |
| Termiz                      | 24,2        | 23,8        | -0,4               |
| Uzun                        | 22,4        | 23,1        | 0,7                |
| Sherobod                    | 22,9        | 23,1        | 0,2                |
| Sho'rchi                    | 24,6        | 24,1        | -0,5               |

## Vafot etganlar

**Vafot etganlar.** 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 4,9 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 3,9 promilleni tashkil etdi, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega kamaydi (2018 yilning yanvar-iyul oylarida 4,2 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan kamayishi Muzrabot (4,1 promilledan 3,6 promillega), Qumqo'rg'on (4,2 promilledan 3,8 promillega), Termiz tumani (5,1 promilledan 4,5 promillega), Uzun (4,2 promilledan 3,6 promillega) tumanlarida kuzatildi.



### Surxondaryo viloyati bo'yicha vafot etganlar soni (2019 yil yanvar-iyun oylaru)

| Hududlar                    | 2018y        | 2019y        | O'sish sur'ati +;- |
|-----------------------------|--------------|--------------|--------------------|
| <b>Surxondaryo viloyati</b> | <b>5 214</b> | <b>4 937</b> | <b>-277</b>        |
| Termiz sh.                  | 314          | 316          | 2                  |
| tumanlar:                   |              |              |                    |
| Oltinsoy                    | 310          | 300          | -10                |
| Angor                       | 260          | 255          | -5                 |
| Boysun                      | 231          | 209          | -22                |
| Muzrabot                    | 279          | 250          | -29                |
| Denov                       | 745          | 744          | -1                 |
| Jarqo'rg'on                 | 464          | 454          | -10                |
| Qumqo'rg'on                 | 462          | 449          | -13                |
| Qiziriq                     | 304          | 300          | -4                 |
| Sariosiyo                   | 385          | 348          | -37                |
| Termiz                      | 263          | 239          | -24                |
| Uzun                        | 353          | 304          | -49                |
| Sherobod                    | 365          | 373          | 8                  |
| Sho'rchi                    | 479          | 396          | -83                |


## Demografik holat

2019 yilning yanvar-iyun oylarida 4,9 ming nafar o'lim qayd etilgan bo'lib, vafot etganlarning 62,1 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,1 % i o'simtalardan, 5,1 % i baxtsiz hodisa,zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,6 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 5,4 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan 0,4 %i yuqumli va parazitar kasalliklaridan hamda 14,2 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,3 ming nafarni tashkil etib, ularning 57,2 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 18,0 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 18,3 %i tug'ma anomaliyalardan, 0,4 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 5,8 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha taqsimlanishi

(jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



**Tabiiy o'sish.** 2019 yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 26,0 ming kishini tashkil etib, 2018 yil mos davriga nisbatan 24,7 ming kishiga (2018 yilning yanvar-iyul oylarida 24,7 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:  
26,0 ming kishi

## Demografik holat

**Nikoh.2019yilning**  
yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 9,1 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,1 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan kamayish sur'atlari Denov (249 kishi), Sherobod (109 kishi), Sho'rchi (91 kishi), Termiz sh. (56 kishi) to'g'ri kelmoqda.

**Nikohdan ajralishlar.**  
2019 yilning yanvar-iyul oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,9 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan koeffitsiyenti, 0,7 promilleni tashkil etdi. Ajrimlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori kamayish sur'atlari Denov(28 kishi),Oltinsoy tumani (13 kishi),Sho'rchi(13 kishi) ,Boysun (18 kishi) to'g'ri kelmoqda.



### Tuzilgan nikohlar va ajrimlar taqsimlanishi (2018-2019 yil yanvar-iyun )



| Hududlar                    | Tuzilgan nikohlar |              |                            | Nikohdan ajralishlar |            |                            |
|-----------------------------|-------------------|--------------|----------------------------|----------------------|------------|----------------------------|
|                             | 2018 y.           | 2019 y.      | O'sish sur'ati +,- (kishi) | 2018 y.              | 2019 y.    | O'sish sur'ati +,- (kishi) |
| <b>Surxondaryo viloyati</b> | <b>9 414</b>      | <b>9 120</b> | <b>-294</b>                | <b>1 048</b>         | <b>934</b> | <b>-114</b>                |
| Termiz sh. tumanlar:        | 534               | 478          | -56                        | 100                  | 100        |                            |
| Oltinsoy                    | 462               | 481          | 19                         | 50                   | 37         | -13                        |
| Angor                       | 505               | 516          | 11                         | 49                   | 40         | -9                         |
| Boysun                      | 292               | 298          | 6                          | 47                   | 29         | -18                        |
| Muzrabot                    | 454               | 449          | -5                         | 45                   | 38         | -7                         |
| Denov                       | 1 567             | 1 318        | -249                       | 187                  | 159        | -28                        |
| Jarqo'rg'on                 | 1 032             | 976          | -56                        | 83                   | 106        | 23                         |
| Qumqo'rg'on                 | 814               | 908          | 94                         | 63                   | 66         | 3                          |
| Qiziriq                     | 631               | 592          | -39                        | 63                   | 50         | -13                        |
| Sariosiyo                   | 764               | 761          | -3                         | 93                   | 62         | -31                        |
| Termiz                      | 368               | 393          | 25                         | 44                   | 49         | 5                          |
| Uzun                        | 570               | 644          | 74                         | 78                   | 83         | 5                          |
| Sherobod                    | 714               | 605          | -109                       | 69                   | 51         | -18                        |
| Sho'rchi                    | 707               | 701          | -6                         | 77                   | 64         | -13                        |

## Demografik holat

**Migratsiya.** 2019 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 5,2 ming kishini , ko'chib ketganlar soni esa 6,5 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 1,2 ming kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida minus 0,9 ming kishi bo'lган.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi) (2018-2019 yil yanvar-iyun )

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Denov tumanida (minus 0,2 ming kishi), Jarqo'rgon (minus 0,3 ming kishi), Termiz sh (minus 0,4 ming kishi), Sariosiyo (minus 0,2 ming kishi), qayd etildi.

|                           | 2018 yil<br>yanvar-iyun | 2019 yil<br>yanvar-iyun |
|---------------------------|-------------------------|-------------------------|
| <b>Ko'chib kelganlar</b>  | 7,2                     | 5,2                     |
| <b>Ko'chib ketganlar</b>  | 8,1                     | 6,5                     |
| <b>Migratsiya saldosi</b> | -0,9                    | -1,2                    |



**Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: X.O'rolov

(71) 230-85-86

(76) 223-07-09